

**KO'P MA'NOLILIK HODISASINING YUZAGA KELISH YO'LLARI****Yunus Jummaevich Davidov**

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6639697>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ko'p ma'nolilik hodisasi, ko'p ma'nolilik hodisasining yuzaga kelish yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ko'p ma'nolik hodisasining ma'no kengayishidan farqli jihatlari keltirilgan. Ma'no ko'chish usullari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlari:** ko'p ma'nolilik, ko'chma ma'no, evfemizm, disfemizm, ma'no kengayishi, metafora, metanimiya, sinekdoxa

**СПОСОБЫ ПОЛУЧИТЬ МАКСИМАЛЬНУЮ ЦЕННОСТЬ**

**Аннотация.** Пути возникновения многозначности. В данной статье рассматривается многозначность, пути возникновения многозначности. Аспекты многозначности (плюрализм) для расширения смысла. Анализируются методы семантики многозначности слов.

**Ключевые слова:** Многозначность, переносное значение, эфемизм, дисфемизм, расширения смысла, метафора, метонимия, синекдоха

**WAYS TO MAKE MOST VALUE**

**Abstract.** This article gives you a brief overview on polysemy and how it can be used. In the article it is stated that the phenomenon of polysemy differs from the expansion of meaning. Methods of meaning shifting in semantics are analyzed.

**Keywords:** polysemy, ambiguity, figurative meaning, euphemism, dysphemism, expansion of meaning, metaphor, metonymy, synecdoche

**KIRISH**

O'zbek tilidagi ko'p ma'noli so'zlarni vujudga keltiruvchi hodisalarning ko'pi shu tilning o'ziga xosdir. Ammo bu hodisalarning shundaylari ham borki, ularni deyarli barcha tillarda uchratish mumkin. Shuning uchun ham «tilshunoslikka kirish» uchun bag'ishlangan barcha darsliklarda bu haqda aytilgan fikrlar uchraydi.

Tilshunoslikda ko'p ma'noli so'zlarni vujudga keltiruvchi birdan-bir hodisa ko'chma ma'noning hosil bo'lish hodisasi deb ko'rsatiladi. Haqiqatda ham ko'chma ma'no hosil bo'lishi ko'p ma'nolikning yuzaga kelishi uchun asosiy hodisalardan biri hisoblanadi. Ba'zi tilshunoslar ma'no kengayishi hodisasini ham ko'p ma'nolikning yuzaga kelishi uchun sabab bo'luvchi hodisalardai biri deb qaraydilar. Biroq bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki ko'p ma'nolikning yuzaga kelishi birdan ortiq leksik ma'noning hosil bo'lishi natijasi bo'lgani holda, ma'no kengayishi faqat birgina ma'noning ichki o'zgarishidir. Ular alohida semantik hodisalar ekani tilshunoslar tomonidan qayd etilgan. Ya'ni ko'p ma'noli so'z bir so'z hisobida birdan ortiq leksik ma'no yuzaga kelishi hisobiga vujudga kelgan bo'lsa, ma'no kengayishi esa faqat ma'lum ma'no doirasidagina sodir bo'ladi. O'sha ma'no anglatgan tushuncha doirasi kengayadi, uning yoniga yangi ma'noqo'shilmaydi.

**TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Kengayish sodir bo'lgan ma'no ilgari qanday qo'llangan bo'lsa, keyin ham o'sha holatda qo'llanaveradi. Faqat o'sha ma'no anglatgan ob'ekt miqdori yoki hajmi ortadi.

So'zlarning yangi ma'no orttirishi hisobiga taraqqiy etishi ko'p ma'nolilik uchun asos bo'ladi. So'zlarning yangi ma'no orttirishi faqat ko'chma ma'no hosil bo'lishi hisobiga emas, evfemizm va disfemizm hisobiga ham sodir bo'ladi. Bu ham tilshunoslikda qayd etilgan. Biroq evfemizm va disfemizm natijasida ko'chma ma'no hosil bo'lishini ko'p ma'nolilikni yuzaga keltiruvchi hodisa sifatida ko'rsatilmagan. Buning ham o'z sababi bor. Chunonchi, evfemizm va disfemizm natijasida, ba'zi adabiyotlarda trop (okkazional ma'no)lar hosil bo'ladi, deyilsa, ba'zilarida uslubiy vositalar yuzaga keladi, deb ko'rsatiladi. Aslida esa bu fikrlarning har ikkisida ham bir narsani, ya'ni evfemizm ham, disfemizm okkazional ma'nolarni hosil qilishi nazarda tutilgan.

Okkazional ma'no esa polisemantik so'zlarni vujudga keltirmasligi tilshunoslikda asoslab berilgan.

Evfemizm va disfemizm natijasida hosil bo'lgan ma'nolarni faqat okkazional ma'nolar deb ko'rsatish ham uncha to'g'ri emas. Chunki o'zbek tilida evfemizm va disfemizm natijasida hosil bo'lgan shunday ma'nolar ham borki, ular leksik ma'nolar singari umumlashgan xususiyatga ega. Shuning uchun ham ular lingvistik lug'atlarda qayd etilgan. Masalan, O'zbek xotinlari andisha nuqtai nazaridan erlarini o'rtoq so'zi orqali ifoda etadilar. Demak, o'rtoq so'zi er evfemistik ma'nosiga ega. Mazkur o'rtoq so'zining evfemistik ma'nolarni leksik bo'lganligi uchun ham, ular lingvistik lug'atda qayd etilgan. Ko'rinib turibdiki, evfemizm natijasida ko'chma ma'no hosil bo'lishi ham ko'p ma'nolilikning yuzaga kelishi uchun sabab bo'la olar ekan.

#### **TADQIQOT NATIJALARI**

Disfemizm natijasida ham leksik ma'nolar hosil bo'ladi. U esa ko'p ma'nolilik hodisasi vujudga kelishi uchun muhim rol o'ynaydi. Disfemizmning polisemantik

so'zni vujudga keltirish qonuniyatlari esa evfemizm qonuniyatlari bilan bir xildir. Chunki ular tilning bir hodisasi bo'lib, shu hodisaning ikki qutbidir.

O'zbek tiliga oid materiallar shuni ko'rsatadiki, umuman so'z yasash, ya'ni affiksatsiya ham ko'p ma'noli so'z hosil bo'lishi, ya'ni polisemiyaning yuzaga kelishida muhim rol o'ynaydi.

Bir o'zakning o'zidan qo'shimcha bilan so'z yasash jarayonida polisemantik so'z ham, omonim ham vujudga kelishi mumkin. Ammo bu hodisa natijasida vujudga kelgan polisemantik so'z bilan omonim o'rtasida aniq chegara yo'q deb bo'lmaydi.

Polisemiya va omonimiya hodisalari tilning fonologiyadan tashqari, barcha sathdarida mavjud. Polisemiya yoki ko'p ma'nolilik tilning mazmun planiga (semantik jabhasiga) xos umumlisoniy hodisa sifatida qaraladi. Shunday ekan, polisemiya, morfemaga xosmi, lug'aviy birlikka xosmi, frazeologik iboranikimi, sintaktik konstruksiyalarnikimi -baribir uning nazariy masalalari bir xil bo'ladi. Polisemiya -bu semasiologik kategoriyadir.

Til birliklarining ko'p ma'noliligi aloqa jarayonida sanoqli til vositalari yordamida son-sanoqsiz mazmunlarni (ma'nolarni) ifodalashda insonlar uchun katta imkoniyat yaratadi. Ko'p ma'nolilik tilga xos ijobiy hodisa bo'lib, u aloqa jarayonida insonlarga xalaqit bermaydi, balki yordam beradi.

Ko'p ma'noli so'zlar o'zbek tilida tilning quyidagi hodisasi natijasida vujudga keladi:

1. Ko'chma ma'no hosil bo'lishi natijasida;
2. Evfemizm va disfemizm natijasida;

### 3. Affiksatsiya natijasida.

Soʻzlarning koʻchma maʼnolari biror predmet, voqelik, belgi, harakat va holat kabilarning nomini yana shunday boshqa predmet, voqelik, belgi, harakat va holat kabilarga koʻchirish orqali hosil boʻladi. Demak, biror nom egasi nomga ega boʻlmagani (yoki boshqacha nomlash uchun) oʻziga nomdosh qilib oladi, natijada nomdosh boʻluvchi hisobiga koʻchma maʼno hosil boʻladi. Koʻrinib turibdiki, koʻchma maʼno hosil boʻlishida ikki obʼektning oʻzaro munosabati asosiy rol oʻynaydi. Mazkur ikki obʼektning biri — nomdoshlovchi, ikkinchisi — nomdoshlanuvchidir. Nomdoshlovchi bilan nomdoshlanuvchi oʻrtasidagi oʻzaro munosabat esa turlicha xarakterga ega. Bu munosabatlarga qarab koʻchma maʼno hosil qiluvchi hodisalarni turlarga ajratish masalasi esa tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilinib kelgan.

### MUHOKAMA

Koʻchma maʼno hosil qiluvchi hodisalarni tasnif qilish masalasi tilshunoslar tomonidan turlicha talqin etilgan. Ularning koʻpchiligi, baʼzi oʻrinlarda, asosan bir fikrga kelgan boʻlishsa ham, baʼzida fikrda umumiylik topa olmaganlar. Tilshunoslarning aksariyati koʻchma maʼno hosil qiluvchi hodisalar turlarining biri—metafora, ikkinchisi — metonimiya deb koʻrsatadilar, shuningdek, bu hodisalar mohiyatini bir xil tushunadilar. Ular metafora nomdoshlovchi bilan nomdoshlanuvchi oʻrtasidagi belgi, xususiyat, harakat, holat, tus kabilarning

oʻxshashligi tufayli nom koʻchishi, metonimiya — nomdoshlovchi bilan nomdoshlanuvchi oʻrtasidagi aloqadorlik tufayli nom koʻchishi deb bilishadi.

Demak, hamma tilshunoslar tomonidan koʻchma maʼno hosil qiluvchi hodisalardan ikkitasi birday eʼtirof etilgan. Ular metafora va metonimiyadir.

Uchinchi hodisa sifatida qaralgan sinekdoxa esa baʼzi tilshunoslar tomonidan metonimiyaga qoʻshib yuboriladi va uning bir turi sifatida qaraladi.

M.Mirtojiev til hodisasi va nutq hodisasi boʻlgan metaforalar haqida fikr yuritib, nutq hodisasi boʻlgan metaforalarning uslubiy xususiyatga egaligini eʼtirof etadi.

B.Umurqulov metaforaning boshqa lingvistik vositalardan farqli ravishda maʼnoni yashirin tarzda ifodalashi, narsa-hodisani xarakterlashda taqqoslash, chogʻishtirish kabi holatlarning mavjudligi bu vosita orqali takrorlanmas fikr ifodalash uchun sharoit yaratishini qayd etadi.

Sh.Maxmaraimova metaforaning badiiy obrazlarning va yangi maʼnolarning hosil boʻlishidagi asosiy yoʻl ekanligini, bir qator nutqiy vazifalarni bajarishini qayd etadi.

Metaforaning yuzaga kelishi quyidagi unsurlarni talab qiladi:

1. Obʼektiv yoki subʼektiv borliqdagi narsalar orasida (keng maʼnoda) oʻxshashlik.
2. Shu oʻxshashlikning lisoniy aksi boʻlmish mutanosib semalar.
3. Narsalardan birining baʼzan, badiiy ifodasining nomi (ayni nutqiy sharoit uchun) yoʻqligi.

### XULOSA

Ana shu unsurlar taʼminlanganda nomning metaforik koʻchishi yuzaga keladi. Demak, metafora obʼektiv (yoki subʼektiv) borliqdagi oʻxshashlikning lisoniy aksi boʻlmish mutanosib semalar asosida bir narsa nomining ikkinchi bir narsa nomi oʻrnida qoʻllanishidir.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. M.Mirtojiev Oʻzbek tilida polisemiya. 1975.

1. O. Azizov., Tilshunoslikka kirish, Toshkent, 1963.
2. B. Umurqulov., O‘zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanish asoslari (dissertatsiya) Toshkent, 2020.
3. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov T., O‘zbek tili, Toshkent, 1966.
4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh., Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent, 1965.
5. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, G‘. Abdurahmonov tahriri ostida, II tom, Toshkent, 1966.
6. Hozirgi o‘zbek adabiy tili(darslik), Rahmatullaev Sh., Toshkent, 2006.
7. Mirtojiev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
8. Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent: Cho‘lpon, 2017. – B. 120.
9. G.Roziqova., O‘zbek tilida sintaktik polisemiy(avtoreferat). Toshkent 1999.
10. G. Qobuljonova., Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini(avtoreferat). Toshkent 2000.
11. “Dehqonchilik mahsulotlari nomlari va ularning lisoniy talqini” Amini Aziz Ahmad 2021. “Nazariy, amaliy tilshunoslik va til o'qitish metodikasi” (konferensiya) to'plam